

## XIVA LITOGRAFIK MATBAASIDA BOSILGAN ASARLAR

*Qushshaqov Ixtiyor Isroilovich*

*Oriental universiteti magistranti, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi  
ilmiy xodimi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xiva toshbosmasining vujudga kelishi hamda ushbu usulda chop etilgan asarlar ilmiy jihatdan muhokoma qilinadi. Mavzu obyektidan kelib chiqilgan holda kitob bosishning litografik usulini vujudga kelishini taqozo etgan omillar ilmiy jihatdan tadqiq etiladi.

**Аннотация.** В данной статье научно обсуждается возникновение хивинской литографии и произведений, напечатанных этим методом. На основании объекта темы научно исследуются факторы, которые привели к возникновению литографического метода книгопечатания.

**Annotation.** Abstract. In this article, the emergence of Khiva lithography and the works printed in this method are scientifically discussed. Based on the object of the subject, the factors that led to the emergence of the lithographic method of book printing are scientifically researched.

**Kalit soʻzlar.** Muhammad Rahimxon II, litografiya, matbbachilik, “Devoni Munis”, “Yetti shahzoda devoni”, “Chahor kitob”.

**Ключевые слова.** Мухаммад Рахимхан II, литография, типография, «Девони Мунис», «Девони семи принцев», «Чахор Китаб».

**Keywords.** Muhammad Rahimkhan II, lithography, typography, "Devoni Munis", "Devoni of Seven Princes", "Chahor Kitab".

Xiva xonligidagi matbaachilik Muhammad Rahimxon II ga nomi bilan bogʻliq. Toʻgʻri, bu paytda Toshkentda Turkiston harbiy okrugining tipografiyasi bor edi. U 1867-yil 14-iyuldan boshlab faoliyat yuritayotgan boʻlsa-da, faqat avvalgi oʻn yilligida oʻzining shatab varaqalari, kitobcha va risolalari, blaknot va blanka qogʻozlarinigina nashr qilib turgan. Boshqa tashkilotlarning buyurtmalarini qabul qilmagan, milliy kitob va risolalarni nashr etmagan, gazeta va jurnallar ham chop etmagan<sup>1</sup>.

Muhammad Rahimxon Feruzning bevosita tashabbusi bilan saroy kutubxonasida saqlanayotgan nodir qoʻlyozma asarlarni va mahalliy shoirlarning devon va toʻplamlarini kitob shaklida nashr qilish maqsadida Xivaga matbaachilik ancha rivoj topgan Eron mamlakatidan toshbosma (litografiya) - kitob bosish

<sup>1</sup> Рустамов М.И. Книга в Средней Азии.//Книга. Иссл. и материалы. Сб.25. –М.:1972. –С.117.

uskunolari keltirildi. Turkman kitobshunosi A.Yazberdiev ushbu toshbosma uskunalarini xonga atab Jeneva (Shveysariya)dan keltirildi, degan fikrni ham bildirgan<sup>2</sup>. Lekin ushbu fikrni quvvatlaydigan aniq manba aytilmaganligi uchun unga qo‘shilish qiyin.

Xiva toshbosmasida nashr etilgan asarlarda Ibrohim Sultonning she‘riy baytlaridan namunalar, tarixiy qit‘alar ham berilgani uning Bayoniy aytganidek, “shoiri xushbayon” ekanligini tasdiqlaydi. 1882-yilda nashr etilgan “Devoni Fuzuliy”ning so‘zboshisida u bunday deb yozadi: “Arbobi basoyirning zamirlarig‘a maxfiy va muhtajib (to‘silgan bo‘lib) qolmasunkim, bu bandai dargohi Ahadu Qadim (Alloh taolo), ya‘ni abd al-muznib al-osiy Ibrohim Sulton mundoq sharafi arzg‘a yetkururkim, chun qazo qo‘li inon azimatimni (ixtiyorimni) Xorazm erami bazm jonibig‘a tortdi. Ul ovon (vaqtlar)... Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy...ning ayyomi saltanati erdikim, jahonpanoh dargohlarig‘a olam hodisalaridin o‘zumni zarravor, bal g‘uborosor tegurdim. Va sharafi ostonbo‘slig‘a yetgandin so‘ngra kamoli tinchliq va nihoyati xushholliq birla kecha va kunduz umru davlati oliylarining duoi xayrig‘a mashg‘ul bo‘lub, muroffa al-hol va forig‘i bol avqot (vaqt) kechurur erdim. (5-6 betlar). Ushbu keltirilgan jummalardan Ibrohim Sultonning Erondan Xorazmga “qazo qo‘li” bilan o‘z ixtiyorisiz (asir tushib) kelib qolgani, keyinchalik esa Muhammad Rahimxon Feruz saroyida ancha qadr topgani qayd etilgan. Saroyga kelganidan so‘ng Ibrohim Sulton hayoti tinchlik va osudalikda o‘tganligini ham yashirib o‘tirmagan<sup>3</sup>.

Xiva toshbosmasi 1874-yilda ishga tushirilgan bo‘lib, unda ilk chop etilgan asar Munis Xorazmiyning “Devoni Munis” asari bo‘lganligi aniqlangan. A.Vamberi (1832-1913)ning 1892-yilda “Vena sharqshunoslik jurnali” nomli nashrda chop etilgan “Hozirgi zamon O‘rta Osiyoning ikkita shoiri - Munis va Amir” nomli maqolasi bor. Maqolada “Devoni Munis” haqida gapirilar ekan, uning titul varag‘ida asar Xivada 1292 hijriy, 1874 milodiy yilda nashr etilganligi aytilgan, deb xabar beriladi<sup>4</sup>. A.N.Samoylovich ushbu xabar orqali Xiva toshbosmasini izlab, faoliyati bilan tanishgani ma‘lum. Ammo u Munis devonining ushbu nashrini qo‘lga kirita olmagan, balki keyingi 1880 yilgi nashrini

<sup>2</sup> Каранг: Язбердиев А. К вопросу о начальном периоде книгоиздательской деятельности хивинской литографии (1874–1880). “Известия АН Туркм.ССР” Серия общ.наук., 1971.№4. С.58.

<sup>3</sup> Аминов Х.А. «Хоразм китобат тарихи манбалари (XVIII аср иккинчи ярми-XX аср бошлари: ЎЗР ФА ШИ кўлёмалар фонди асосида)» // Тар. ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – Б. 56.

<sup>4</sup>Аминов Х.А. «Хоразм китобат тарихи манбалари (XVIII аср иккинчи ярми-XX аср бошлари: ЎЗР ФА ШИ кўлёмалар фонди асосида)» // Тар. ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. Б. 105.

xivaliklardan olgan. Umuman, Munis devonining birinchi – 1874 yilgi nashri sobiq ittifoq hududidagi kutubxonalarda topilmagan.

A.N.Samaylovich Aziya muzeyiga Xivada chop etilgan 5 ta kitobni topshiradi. Ularning ro‘yxatini K.G.Zaleman bu tarzda keltirgan:

- 1) Devoni Pahlavon Niyoz al-mutaxallis bil-Komil. Xiva, 1298-yil.
- 2) Devoni Ogahiy. Xiva, 1323-yil.
- 3) Majmuai Davvoviyn. Xiva, 1324-yil.
- 4) Devoni Munis. Xiva, 1297-yil.
- 5) Majmuai shuaro Feruzshohiy. Xiva, 1324-yil<sup>5</sup>.

A.N.Samaylovich Xivaga 1908-yilda kelganida u G. Vamberi aytgan “Devoni Munis”ning 1292/1874-yilgi nashridan xabari bor edi. Uning ushbu nashrini emas, balki devonning keyingi nashrini qo‘lga kiritgani ham g‘alati. Chunki u Munisning o‘sha devoni haqidagi Vamberining maqolasi orqali Xivada toshbosma borligini bilgan va ushbu toshbosmani o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, mutaxassislardan biri Ahmadjon Tabibiy bilan suhbat ham qurgan edi. Demak, Munisning 1874 yilgi nashri borligiga bizda yana bir shubha uyg‘otadi.

Shuni qayd qilib o‘tishimiz lozimki, 1301 yil nashr etilgan “Devoni Bedil” asari xotimasida “Qit‘ai tarix” nomi bilan mana bu ikki bayt yozilgan:

*Kalomi mo‘jizi nizomi Bedil, chu tab‘ gashta ba-tarzi dilkash,  
Ki, tobi har harf rashki mehrash kard rubuda zi yadi bayzo.  
Siniyni suvuriy va ma‘naviyash ham az sirri shavq guft ba-qalam,  
Ki, gasht matbu‘ dar hazoru du sadu navad va kalomi zebo.*

Mazmuni: Bedil nizomi, uslubidagi mo‘jizakor kalom dilkash (diltortar) tarzda chop bo‘ldi. Oppoq qo‘ldan paydo bo‘lgan har bir harf ravshanligi muhabbat rashkidan eridi. Suvuriy hamda ma‘naviy o‘tkirligi sababli shavq siridan qalamga dedi: “Bir ming ikki yuz to‘qsonda tab‘ qilindi” va zebo kalom bo‘ldi.

Ma‘lumki, toshbosma kitoblar noshirlarining ismi shariflari nashrning titul varag‘ida yoki asar so‘zboshisida aytib o‘tilardi. O‘zbek toshbosma kitoblar tadqiqotchisi R.Mahmudova O‘zbekistonning adabiy-badiiy va o‘quv nashrlarini o‘rganish jarayonida alohida nashrni, ko‘pincha esa qo‘lyozmani chop etishga tayyorlash hamda mablag‘ bilan ta‘minlashni o‘z zimmasiga olgan 80 dan ortiq noshirlar, buyurtmachilar va kitobga homiylik qilgan kishilarning nomlarini aniqlagan. Xiva toshbosmasida chiqqan kitoblarga mas‘ul bo‘lgan noshirlardan

<sup>5</sup> Qarang: Язбердиев А. Из истории библиографирования национальной печати народов Средней Азии второй половины XIX и первой четверти XX века. –Ашхабад: Ёлым, 1974. –С.22.; Язбердиев А. К вопросу о начальном периоде книгоиздательской деятельности Хивинской литографии (1874–1880 гг.) //Изв.АН Туркмен.ССР. Серия общ.наук. 1971, №4. –С.57.

Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, Muhammad Yusuf Bayoniy, Ahmadjon Tabibiy va Muhammad Murod Devonbegi singari ziyolilarning nomlarini aytib o'tishimiz lozim. Ammo ularning nomlari Xiva toshbosmasida nashr etilgan kitoblarning titul varaqlarida uchramaydi. Balki, bu yerda chop etilgan har bir kitobning avvalida nashr uchun yozgan noshirning so'zboshisidan bilib olish mumkin.

Otajon bosma toshbosmada Ibrohim Sulton kabi nashr qilish jarayonini kuzatib turuvchi nashr ishlariga mas'ul bosh texnik xodim hisoblangan. Ye.K.Betger shu yerda chop etilgan "Xamsa" asarida Zevariylar ismli shaxs ham ishlaganligini qayd qiladi. Bu kishi Otajon bosmaga yordamchi, ya'ni bo'yoq hamda qog'oz sifatiga javobgar shaxs bo'lgan. Shu yerda nashr etilgan "Etti shahzoda devoni"ning titul varag'ida yana Adoiylar ismli zotning nomi ham bor. Bu shaxs, aftidan, kitobning badiiy bezaklariga hamda muqovalanish jarayoniga mas'ul bo'lgan. Ahmadjon Tabibiylarning "Majmuai shuaro" kitobining titul varag'ida "Otajon bosmachi ibn Abdolnizoz Xivaqiy" nomi ko'rsatilgan<sup>6</sup>.

Bugungi kunda toshbosmada nashr etilgan kitoblar 40 ga yaqin ekanligi aniqlangan. Ularning ko'pchiligi badiiy-adabiy asarlardir. Bular asosan Alisher Navoiy, Munis Xorazmiy, Rojiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Tabibiy hamda XIX asr oxiri-XX asr boshlarida yashagan xorazmlik shoirlarning asarlaridan iborat.

Xiva toshbosmasida Komil Xorazmiy, Muhammad Yusuf Rojiy, Ahmadjon Tabibiy, Muhammad Rasul Mirzo va boshqa Xorazm shoirlarining asarlari nashr etilgan. Ba'zi asarlar bir necha marta chop qilingan. Jumladan, "Yetti shahzoda devoni" 1906 yildan 1909 yilgacha to'rt marta nashrdan chiqqan. Komil Xorazmiylarning devoni esa to'rt marta chop etilgan. Mirzo noshirlik qilgan, har qaysisining avvalida 3 betlik so'zboshi ilova qilingan Komil Xorazmiy devoni 1880, 1881, 1895 va 1909 yillardan nashrdan chiqqan edi<sup>7</sup>.

Ogahiyning 1905-yilda o'sha mashhur devoni yana 434 sahifada (shundan 13 bet debocha) chop etiladi. Ahmadjon Tabibiylarning 1909-1910 yillarda o'zbekcha va forscha "Hayrat al-ushshoq", "Munis al-ushshoq", "Mir'ot al-ishq", "Tuhfat as-sulton" va "Mazhar al-ishtiyoq" nomli beshta devoni ham chop etilgan. Tabibiylarning 1655 sahifalik "Majmuat ash-shuaro" (1906 y.) asari ham chop

<sup>6</sup> Аминов Х.А. «Хоразм китобат тарихи манбалари (XVIII аср иккинчи ярми-XX аср бошлари: ЎЗР ФА ШИ кўлёмалар фонди асосида)» // Тар. ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – Б. 58.

<sup>7</sup> Ахунджанов Э.А. К истории развития книжного дела в Хиве. //Общественные науки в Узбекистане, №7–8. 1997 г. С.102.

etilgan. Ushbu tazkira asarda Xiva shoirlaridan o‘ttiz nafar shoirning Feruz g‘azallariga yozgan payravlari kiritilgan.

Toshbosmada boshqa tillardan tarjima qilingan asarlar ham chop etish yo‘lga qo‘yilgan edi. Fuzuliyning “Soqiynoma” asarining o‘zbekcha tarjimasi (uni Muhammad Rasul Mirzo tarjima qilgan) 1907, 1908 va 1909 yillarda qatorasiga uch marta nashr etildi.

Bulardan tashqari toshbosmada diniy adabiyotlarni nashr etish ham ko‘zda tutilgan. “Chahor kitob” 1298 hijriy yilda chop etilgan bo‘lib, 242 betlik forsiy asardir. Aslida “Muhimmot al-muslimiyn” deb atalgan ushbu asar maktablardan oq bolalarga o‘qitilar, ba’zi joylari yod qilinardi. Kitobga nisbatan talab katta bo‘lgan, albatta. Shuning uchun uni Ibrohim Sulton uni o‘z qo‘lida ko‘chirib, nashr qildiradi. Kitobga Komil Xorazmiyning o‘g‘li Muhammad Rasul noshirlik qilgan va so‘zboshi yozgan.

Umuman, Xiva toshbosmasida nashr etilgan asarlarni til jihatdan turkiy-o‘zbekcha va forsha asarlarga ajratish kerak. Mavzu jihatdan esa ular devonlar, bayozlar, diniy-fiqhiy asarlar, tilshunoslikka oid hamda odob-axloq janrida yozilgan asarlar turkumlariga ajratish mumkin.

Toshbosmada chiqqan ilk asarlarning unvonlarida Xiva toshbosmasida chiqqanligi yozilmas edi. Masalan, 1876-yilda chiqqan “Nisob as-sibyon”ning unvonida (titul varag‘ida) forsha ikki bayt va o‘rtada kitob nomigina yozilgan bo‘lsa, 1880-yilda nashr etilgan Rojij devonining titul varag‘ida faqat “Devoni Rojij” so‘zlarigina keltirilgan xolos. Xiva toshbosmasida nashr etilgan asarlar ichida o‘zining dabdaba bilan ishlanganligi bilan 1880-yilda nashr etilgan Navoiyning “Xamsa”si ajralib turadi. Uning titul varag‘i bir-biriga chirmashib ketgan gullar bilan ramkaga olingan: o‘rtada aylana shakl bo‘lib, u ham islimiy gullar bilan o‘rab olingan. Aylana ichida “Xamsai Navoiy. Daftari avval. Hayrat ul-abror” nomlari bitilgan. Unvonning tepa qismida “Abul Muzaffar val-mansur Abulg‘ozi Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon” so‘zlari, uning quyi qismida esa “Dor us-saltanat Xorazmi erami bazm, fiy matba’i podshohi zamon” so‘zlari yozib qo‘yilgan. Navoiyning “Chor devon”ining nashrida ham har bir devonning titul varag‘larida shu holatni kuzatamiz. Masalan, “Badoyi’ alg‘vasat”ning unvonida uning nomi romb shaklli gulli ramka ichida o‘rtada yozilgan, uning tepasida esa: “Ba-avni Xudovandi hayyu qadim. Ba-farmoni xoni Muhammad Rahim” so‘zlari bitilgan. Pastida esa “Fiy matba’i xurshidi matla’ dor al-xilofa

Xivaq, sonahallohu taolo ‘an al-haraqı val-g‘araq, fiy 1300 sana” degan Xiva matbaasida chop etilganligi va nashr yili ko‘rsatilgan<sup>8</sup>.

“Yetti shahzoda devoni” Xiva matbaasida 1324 hijriy (1906) yilda chop qilinadi. Bu birinchi martaba chop qilinishi edi. Xiva xonining farzandlari va qarindoshlaridan yetti shahzodaning devonlari jam‘langan. Ular: Shahzoda To‘ramurod to‘ra (Murodiy), Shahzoda Isfandiyorjon to‘ra (Farrux), Shahzoda Sayyid Nosirjon to‘ra (Sultoniy), Shahzoda Sayyid Sa‘dullohjon to‘ra (Sa‘diy), Shahzoda Hasanquli to‘ra (Sodiq), Muhammad Yusufbek (Bayoniy) va Husanmurodbek (Oqil) edilar. Ushbu kitobning titul varag‘i o‘ziga xos qilib ishlangan. Titul varag‘i uch tomoni qo‘ng‘iroqqa o‘xshash lola g‘unchasi tushirilgan hoshiyaga o‘ralgan: G‘unchalar bir-biriga ulanib ketgan. O‘rtada esa aylana shakl chizilib, u ham lola g‘unchasi bilan o‘ralgan. Aylana ichida yetti shahzodaning ismi va taxalluslari bitilgan. Aylana shaklning to‘rt tarafida kichik ikki chizikli doiralar bor. Doiralar yuqorisi uch va pastı ikki chiziq bilan to‘rtburchakka olingan. Varaq yuqorisida to‘rt satr, pastida esa ikki satr bilan quyidagi so‘zlar bitilgan: “Alhamdulillohi a‘lo ehsonih. (Uning ehsoni sabab Allohga hamdlar bo‘sin!). Hazrat Sulton, Oliy dudmon Sulton ibn Sulton ibn Sulton Abulmuzaffar val-mansur Abulg‘oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon xalladallohu taolo mulkahu va sultonahu (Alloh taoloning mulkini va sultonligini abadiy qilsin)ning farmoni oliylari bila matbaai Xorazmshohiydakim, Xivaqi doril xilofasida voqe‘dur, avvalg‘i martabada tab‘ zevari bila muzayyan bo‘lib, hijratning ming uch yuz yigirma to‘rtlanji yilida matbu‘i taboye‘i ahli jahon bo‘ldi”. Aylanalar tagidagi ikki chiziq orasida “Amali Ado (yoki Adoiy)” so‘zlari bor. Bundan biz toshbosmada Ado taxallusli kishi ham ishlaganligini bilamiz.

Toshbosma xattotlar ishi va ularning betakror san‘ati bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun nashriy kitoblarning ham badiiy saviyasi va kitobat san‘ati yangicha ruh kasb etdi. Toshbosma uchun kotiblik qilgan xattotlardan Ibrohim Sulton, Domla Muhammad Yusuf Xorazmiy ibn Berdimurod so‘fi, Mullo Ibrohim bin Domla Qalandar hoji, Mullo Bekmuhammad bin Qutlug‘murod so‘fi singari xattotlarning nomlari uchraydi. Xiva toshbosmasi uchun eng ko‘p kotiblik qilgan mohir xattot Mullo Ibrohim bin Domla Qalandar hoji nomini ta‘kidlab o‘tmoqchimiz.

Otajon bosmaning nashr qilgan kitoblari (masalan, “Majmuai shuaro”, “Devoni haft shuaro”) Ibrohim Sulton nashr qilgan asarlardan o‘zining ziynati, matnlarni

<sup>8</sup> Аминов Х.А. «Хоразм китобат тарихи манбалари (XVIII аср иккинчи ярми-XX аср бошлари: ЎЗР ФА ШИ қўлғезмалар фонди асосида)» // Тар. ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – Б. 62.

joylashtirish tartibi, kitobat san'ati bilan farq qiladi. Ibrohim Sulton nashrlarida siyohi o'chib ketgan, jadval bir tekis tortilmagan varaqlar ko'plab uchraydi. Otajon bosma nashrlarida bunday salbiy holatlar kam. Shuningdek, Ibrohim sulton kitoblarni bezashga juda kam e'tibor bergan. Titul varaqlarida, sarlavhalarda naqshlar qo'yilmagan. Otajon Abdolovning nashrlarida esa milliy naqshlarni juda ko'p qo'llanganligini ko'ramiz. "Majmuai shuaro"ning birinchi nashrida har bir g'azal payrovidan so'ng gullar rasmi tushirilgan. Ular orasida xurmo, gujum (chinor) rasmlari, tuvakka solingan gullar tasviri mavjud.

Ushbu Xiva toshbosmasi haqidagi faslimizni xulosalar ekanmiz, bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Xivada adabiyot va san'at o'z davriga nisbatan misli ko'rilmagan tarzda rivoj topdi, shakllandi. 1874-yilda Xivada matbaachilikning paydo bo'lishi, toshbosma usulida kitoblar chop etishga kirishilishi madrasa toliblari va kitobxonlarning imkoniyatlarini bir qadar oshirdi, adabiyotning ijtimoiy ahvoli keskin o'zgardi. Xattotlik san'ati bilan uyg'un ravishda rivojlangan toshbosma san'atida ham ko'zga ko'ringan xattotlar faoliyat olib bordilar. Noshirlar esa chopga tayyorlangan har bir kitobni sinchkovlik bilan ko'zdan kechirib, nashr etishga ruxsat berar edilar. To'g'ri, toshbosmaning ilk nashrlarining ko'rinishi Eron ta'sirida fors kitoblariga o'xshab ketsada, lekin keyinchalik milliy san'at namunalarining izlari ko'rina boshladi. Shuningdek, toshbosmada nashr etilgan kitoblar repertuari oshgan sayin ularning ko'rinishi, kitobat san'ati ham go'zallasha, yaxshilasha borgani seziladi. Toshbosma faoliyati haqida so'z yuritar ekanmiz, hali aniqlanmay qolgan bir qancha masalalar mavjudligini aytib o'tmoqchimiz. Shulardan biri toshbosmaning aniq ishga tushgan vaqtini hamda eng ilk nashrini aniqlash masalasidir.

Umuman olganda, Xivada toshbosmaning ishga tushirilishi kitobat san'atida, xattotlik ishida yangiliklar kirib kelishiga zamin hozirladi. Toshbosmaning o'zi esa Xorazm madaniyatining qo'shni xonliklarga nisbatan tezroq yuksalganligini namoyon qilib turadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Аминов Х.А. «Хоразм китобат тарихи манбалари (XVIII аср иккинчи ярми-XX аср бошлари: ЎЗР ФА ШИ кўлёмалар фонди асосида)» // Тар. ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – Б. 62.
2. Рустамов М.И. Книга в Средней Азии.//Книга. Иссл. и материалы. Сб.25. –М.:1972. –С.117.

3. Язбердиев А. К вопросу о начальном периоде книгоиздательской деятельности хивинской литографии (1874–1880). “Известия АН Туркм.ССР” Серия общ.наук., 1971.№4. С.58.
4. Язбердиев А. К вопросу о начальном периоде книгоиздательской деятельности Хивинской литографии (1874–1880 гг.) //Изв.АН Туркмен.ССР. Серия общ.наук. 1971, №4. –С.57.
5. Ахунджанов Э.А. К истории развития книжного дела в Хиве. //Общественные науки в Узбекистане, №7–8. 1997 г. С.102.